



Davronova Feruza Rahmonovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
 "Siyosiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi, s.f.f.d. (PhD)
 e-mail: feruza_davronova_82@mail.ru

GENDER MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY TAHLILI

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.253>

Annotatsiya. Maqolada jamiyatda gender madaniyatini shakllantirish va uning gender siyosatiga ta'siri masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti ijtimoiy-tarixiy, struktur va gender yondashuvlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Maqolada jamiyatda gender madaniyatini shakllantirish va ommalashtirish, bir tomondan, davlatning gender siyosatiga ijobiy ta'sir qilib, ikkinchi tomondan, jamiyatda gender munosabatlarning transformatsiyasiga xizmat qilishi, boshqacha qilib aytganda, egalitar xususiyat kasb etishi borasida so'z boradi. Tizimli tarzda amalga oshirilgan gender strategiyasi jamoatchilik ongiga ta'sir etib, gender stereotiplarining egalitar xususiyatga ega ijtimoiy munosabatlarga o'rnini almashishi, zamonaviy jamiyatda erkak va xotin-qizlarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishiga xizmat qilishi borasida xulosalar bayon etiladi.

Tayanch so'zlar: gender madaniyati, gender siyosati, gender tenglik, gender stereotiplari, gender munosabatlari, tengsizlik, diskriminatsiya.

Аннотация. В статье анализируются вопросы формирования гендерной культуры в обществе и её влияния на гендерную политику. Объект исследования анализируется с позиции социально-исторического, структурного и гендерного подходов. В статье утверждается, что формирование и популяризация гендерной культуры в обществе, с одной стороны, оказывает положительное влияние на гендерную политику государства, а с другой – способствует трансформации гендерных отношений в обществе, то есть приобретает эгалитарный характер. Сделаны выводы о том, что системно реализуемая гендерная стратегия влияет на общественное сознание, заменяет гендерные стереотипы эгалитарными социальными отношениями и способствует обеспечению равных возможностей для мужчин и женщин в современном обществе.

Ключевые слова: гендерная культура, гендерная политика, гендерное равенство, гендерные стереотипы, гендерные отношения, неравенство, дискриминация.

Annotation. The article analyzes the issues of formation of gender culture in society and its influence on gender policy. The object of the study is analyzed from the position of socio-historical, structural and gender approaches. The article states that the formation and popularization of gender culture in society, on the one hand, has a positive impact on the gender policy of the state, and on the other hand, contributes to the transformation of gender relations in society, that is, it acquires an egalitarian character. Conclusions are made that a systematically implemented gender strategy influences public consciousness, replaces gender stereotypes with egalitarian social relations and contributes to ensuring equal opportunities for men and women in modern society.

Keywords: gender culture, gender politics, gender inequality, gender stereotypes, gender relations, inequality, discrimination.

Kirish. Jamiyatda gender tengligini ijtimoiy qadriyat, madaniyatning uzviy bir omili o'laroq shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilash muhim hisoblanadi. Binobarin, madaniyat kishilik jamiyatining e'tiqodlari, an'analari, urf-odatlarining vorisliq orqali shakllangan shunday bir tizimiki, jamiyatning har bir a'zosi o'z hayotini, yon-atrofini va kelajagini yaratishda yetakchi fenomen vazifasini o'taydi. Mamlakat taraqqiyoti va rivojlanishida madaniyat, umuminsoniy qadriyatlar, inson huquqlari hamda xotin-qizlar gender tengligi masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro reytinglar, hisobotlarda mazkur ko'rsatkichlar dinamikasiga diqqat qilinishi esa e'tiborga molik, albatta. Madaniyat jamiyatda kishilarning fikr-o'ylari, dunyoqarashi va hattoki ularning o'zaro xatti-harakatlariga ham ta'sir ko'rsatadi, ammo ularning yagona qarash yoki yakdil xulq-atvor asosida birlashishiga xizmat qilmaydi. Madaniyat kishilar tomonidan doimiy transformatsiyaga uchrab boradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur o'zgarishlar va yangilanishlar bevosita uzoq muddat davomiyligida mavjud madaniy aspektlar ta'sirida amalga oshadi.

Maqsad va uni asoslash. Mazkur maqolani yozishdan maqsad mamlakatimizda gender madaniyatini shakllantirish va uning gender siyosatiga ta'siri masalalarini ijtimoiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot obyekti ijtimoiy-tarixiy, struktur va gender yondashuvlari nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Mamlakatimizda tizimli tarzda amalga oshirilayotgan gender strategiyasining jamoatchilik ongiga ta'sir etishi, gender stereotiplarining egalitar xususiyatga ega ijtimoiy munosabatlarga o'rnini almashishi, zamonaviy jamiyatda erkaklar va xotin-qizlarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishiga xizmat qilishi borasidagi xulosalar bayonida rivojlangan mamlakatlarning mazkur soha bo'yicha tajriba va ko'nikmalari ham qiyosiy o'rganilgan. Maqolani yozishda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlaridan, g'arb va mahalliy olimlarning darslik, ilmiy maqola, monografiyalaridan, yirik xalqaro tashkilotlarining rasmiy saytlarida chop etilgan ma'lumotlardan foydalanildi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Xo'sh, gender madaniyati o'zi nima, gender madaniyatining milliy xususiyatlari borasida nimalarga e'tibor qaratish muhim va bu madaniyat shaklini jamiyatga singdirish qanchalik dolzarb degan savollarga javob izlaymiz.

Gender madaniyati tushunchasi foydalanishga kirib kelgan nisbatan yosh tushuncha sifatida qaraladi. Uni sotsial fenomen sifatida madaniyatning muhim bir elementi deb ta'riflash mumkin. Shu bilan birga, siyosiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy, maishiy, iqtisodiy, tarixiy kabi jamiyat sohalarini o'z ichiga qamrab olgan murakkab tuzilishga ega tushuncha sifatida qarash mumkin. Gender madaniyatini tor ma'noda subyektning individual xususiyati, keng ma'noda, gender kompetensiyasi, dunyoning gender manzarasi, o'ziga xos qadriyatlar va xulq-atvor majmuyi tarzida xarakterlash mumkin. Yanada chuqurroq tavsiflashga urinadigan bo'lsak, dunyoning gender manzarasiga qarab, patriarxal yoki egalitar tipga mansub gender madaniyati shakllanadi. Patriarxal gender madaniyati oila va jamiyatdagi erkaklarning mavqeyi ustuvorligiga asoslangan an'anaviy qadriyatlar hisoblanadi. Egalitar gender madaniyati esa, aksincha, gender tengligi tamoyiliga asoslangan va uni tatbiq etishga yo'naltirilgan umumiy madaniyatning tarkibiy yo'nalishidir¹. Demak, inson huquqlari va erkinliklarini kundalik hamda maishiy madaniyatga singdirish nihoyatda muhim bo'lib, milliy va an'anaviy hayotga uyg'unlashtirilgan insoniy haq-huquqlar o'zaro yashash hamda istiqomat qilish madaniyatining oshirilishiga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, gender tengligi, birinchi navbatda, inson huquqi bo'lib, jamiyatning har bir a'zosi qo'rquv va tazyiqlarsiz, erkin va teng asosda yashash huquqiga ega hisoblanadi. Afsuski, BMTning hisobotida Osiyo mamlakatlari aholisining turli jabhalardagi ishtiroki tahlil etilganda, gender tengsizliklari madaniy omillarga borib taqalishi kuzatilgan.

Gender madaniyati umumiy madaniyatning ko'rinishi singari o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlarga ega²:

1. Kognitiv – ma'lum bir jins vakili sifatida o'zining jinsiga xos bo'lgan gender rollar, gender stereotiplar, ularning mazmuni, o'ziga xos jihatlari, qisqacha qilib aytganda, o'zini-o'zi anglashni shakllantirishga qaratilgan.

¹ В.В.Созаев Гендерная теория как фактор формирования гендерной компетентности в культурологическом образовании школьников, 2008. – С. 426-430.

² С.Т.Вихрь. Гендерное воспитание учащихся старшего подросткового и раннего юношеского возраста: дис. канд. пед. наук. – Ташкент: 2006. – С.110.

2. Qadriyatli-hissiy – umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini va har ikki jins uchun teng huquqlarni tan olish, oila hamda nikohda tenglik va hamkorlikka yo'naltirilgan.

3. Xulq-atvor – gender rollarni chuqur anglash orqali qarama-qarshi jins vakiliga nisbatan har qanday vaziyatda adekvat, tushunuvchan va hurmat ko'rsatish orqali munosabatda bo'lish modellarini amalga oshirishga qaratilgan.

Gender madaniyatining shakllanishi va takomillashuvi bevosita uning ijtimoiylashuvi bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiylashuv jarayoni turli sotsializatsiya agentlari orqali jamiyatga sekin-astalik bilan kirib boradi va moslashadi. Tabiiyki, kishilar ongiga kirib borish jarayoni to'siq va qarshiliklarsiz bo'lmaydi. Jamiyat qandaydir holatda uni rad etadi, taqiqlashga urinadi yoki unga qarshi kurashadi.

Shvedovanning ta'kidlashiga ko'ra, aynan gender sotsializatsiyasida ta'lim tizimi asosiy agent vazifasini bajaradi va gender madaniyatini rivojlantirishda yetakchi ijtimoiy institut³ vazifasini bajaradi. Andreeva gender madaniyatini jamiyatning asosiy manbayi bo'lgan oila va nikoh munosabatlaridagi gender rollar, gender munosabatlar, jins bilan bog'liq stereotiplar, qarashlar, tamoyillar, xulq-atvor me'yorlari yig'indisi⁴ sifatida ta'riflaydi.

E.A.Orlovaning gender madaniyatini tadqiq etishda ishlab chiqqan morfologik model konsepsiyasiga tayanadigan bo'lsak, erkak va ayolning jamiyatda mavjud me'yorlar, ideallar, e'tiqodlar, urf-odatlar, an'analar hamda xatti-harakatlarda mujassamlangan ijtimoiy rol va turli sohalardagi ma'lum gender munosabatlari sifatida⁵ ta'riflanadi. N.V.Orlova esa gender madaniyatini ikki yo'nalishda: siyosiy va maishiy gender madaniyati orqali tushuntirishga harakat qiladi, jumladan, siyosiy gender madaniyatiga jamiyatda qabul

qilingan gender tengligiga oid huquqiy me'yorlar, ideallar, an'analar, xulq-atvor namunalari tegishli bo'lsa, maishiy gender madaniyatiga jamiyatdagi mavjud konkret gender normalari, rollar, erkak va ayol statuslari bilan bog'liq real holat kiritiladi.⁶ Ayni masalada Entoni Giddensning qarashlarini tahlil qiladigan bo'lsak, jamiyatning gender tuzilishidagi o'zgarishlar kundalik va maishiy hayot tarziga ko'chishining o'zi shu sohadagi globalizatsiyaning yorqin ko'rinishi hisoblanadi. Giddensning fikricha, zamonaviy dunyodagi eng muhim transformatsiyalardan biri insonlarning shaxsiy hayotidagi, jumladan, nikoh, oila, jinsiy munosabatlarga nisbatan qarashlardagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekan.⁷ Shuni aytib o'tish joizki, hozirda jamiyatning gender tuzilishida o'zgarishlar jarayoni faol davom etmoqda. Bu o'zgarishlarni harakatlantiruvchi asosiy institut sifatida ta'lim tizimining o'rni katta.

Gender madaniyatining rivojlanishi umuminsoniy, insonparvarlik qadriyatlarini, voqelikni analitik idrok etishni, nostereotipik fikrlashni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ushbu fazilatlarni gender universal va ta'limdagi ustuvorlik sifatida belgilab, biz jamiyatimizning madaniy, uning qadriyatlari nafaqat deklarativ, balki amaliy xususiyatga ega ekani e'tirof etilishiga umid qilishimiz mumkin. Shu bilan birga, jamiyatdagi oila va nikoh, ijtimoiy munosabatlarda gender rollarni anglash, uni tushunish va qarshi tomonga nisbatan tolerantlik, sog'lom va hurmatga asoslangan munosabatni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Jamiyatimizda gender madaniyatini shakllantirish borasida qator islohotlar tizimli ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Respublikaning barcha hududidagi gender holatlarini tahlil qilish maqsadida ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish, buning uchun esa jamiyatning jami qatlamlarini ijtimoiy kuzatishning amaliy mexanizmlarini yo'lga qo'yish lozim. Qolaversa, bu borada yana quyidagi omillarga e'tibor qaratish ijobiy natijalarga olib keladi:

³ А.В.Шведова. Развитие гендерной культуры как культура социального взаимодействия// Инновационные проекты и программы в образовании. 2014. №5. – С.18 (18-22).

⁴ И.Андреева. Формирование гендерной культуры в современном обществе: философско-культурологический анализ: дис. ... докт. филос. наук: 09.00.03/Н.И.Андреева; Рост. гос. ун-т. –Ростов н/Д, 2005. – С. 285.

⁵ Н.В.Антонова. Гендерная культура как фактор формирования гендерной политики в России". Социология. Bulletin of the South Ural State University. Ser. Social Sciences and the Humanities, 2019, vol. 19, no. 4. – С. 103 (102-108).

⁶ Н.В.Антонова "Гендерная культура как фактор формирования гендерной политики в России". Социология. Bulletin of the South Ural State University. Ser. Social Sciences and the Humanities, 2019, vol. 19, no. 4. – С. 104 (102-108).

⁷ Гидденс Э. Трансформация интимности. – Санкт-Петербург: Питер, 2004. – С. 208.

1) fan, ta'lim va ishlab chiqarishda xodimlarning malakasini oshirishga mo'ljallangan o'quv dasturlariga gender masalalarini kiritish kadrlarning gender savodxonligini oshiradi;

2) huquqiy hujjatlar va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda gender tahlili qonunchilikda muhim ko'nikmalardan biriga aylanadi;

3) har qanday darajadagi byudjetlarni ishlab chiqishda gender tafovutlari hisobga olinishi gender tengsizligining oldini oladi;

4) gender tenglik bo'yicha komissiyaning mintaqaviy va mahalliy miqyosda faoliyat yuritishi islohotlar samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

5) jamoat tashabbuslari davlat va shahar hokimiyatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va h.k.

Ayollarning siyosiy jarayonlardagi faolligi demokratik boshqaruvning tub tamoyillariga tayanganini hisobga olgan holda bu kabi tadqiqotlar mamlakat ichkarisi va tashqarisida kechayotgan siyosiy o'zgarishlarga xotin-qizlarning munosabati va ta'sirini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Biroq jamiyatdagi mavjud gender tengsizligi muammolari mazkur siyosiy jarayonlarga to'sqinlik qiluvchi jiddiy muammo sifatida qaraladi. Gender muammolariga yechimni ijtimoiy hamkorlik orqali izlash barobarida, bu boradagi mulohazalarimizni quyidagicha izohlashga harakat qildik:

Birinchidan, gender strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi barcha hamkor va turli darajadagi mas'ullarning faolligi hamda javobgarligini talab qiladi.

Ikkinchidan, gender tengligiga erishishda sektorlararo ijtimoiy sheriklik muhim mexanizm hisoblanib, har qanday masalaga nisbatan ratsional yechim topishga asos bo'ladi. Shuningdek, sektorlararo hamkorlik, birdamlik, uyushish, maqsad asosida birlashish, muloqotga kirishish va yagona yechim topish konsensusga erishishda ahamiyatlidir. Bunda, fuqarolik jamiyati institutlari, NNTlar ham xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga xizmat qiladigan asosiy faktorlar bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, gender tengsizligiga doir masalalarni hal qilish hokimiyatning davlat organlari va ko'p sonli xotin-qizlar tashkilotlarining o'zaro hamkorlik mexanizmi takomillashuvini talab qiladi. Bunda, boshqa davlatlarning gender tengligiga erishish borasidagi ijobiy tajribasi, amaliyotini o'rganish maqsadida ular bilan tajriba almashish tizimini yaratish, shuningdek, "Xotin-qizlar"

mavzusiga doir ilmiy-tadqiqotlarni faollashtirishning muhim omillaridan biri – davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan genderni oid tadqiqotlarni moliyalashning samarali mexanizmlarini izlab topish.

To'rtinchidan, gender tengligini ta'minlashda OAVning ham o'rni beqiyos. Shuningdek, mamlakat ta'lim tizimining quyi bosqichidan tortib, oliy o'quv yurtlarida gender tenglik tamoyillarini davlat ta'lim standartlari, dastur va rejalarida aks etishi, ya'ni institutsional maqom kasb etib borishi kutilgan maqsad hamda natijaga erishuv jarayonini yaqinlashtiradi.

Beshinchidan, siyosiy institutlar faolligi va mexanizmlarini o'rganishda gender tenglik tamoyillarining joriy etilishi ayni paytda ayollarning siyosatdagi rolini kompleks tadqiq etish masalasini yanada dolzarblashtirmoqda. Binobarin, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini ta'minlash, bu jabhada uchrayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida keng ko'lamli izlanishlar olib borish jamiyatda xotin-qizlar integratsiyasining muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatda siyosiy faol ayol obrazi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida xalqaro miqyosda keng tan olinmoqda. Xususan, yetakchi xalqaro tashkilotlar, rivojlangan mamlakatlar tomonidan ilgari surilayotgan taraqqiyot dasturlari, innovatsion loyihalar bevosita xotin-qizlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy huquq va erkinliklarini himoyalash, siyosiy faolligini oshirish, davlat boshqaruvida xotin-qizlarning faoliyatini kengaytirishga xizmat qilayotgani shubhasiz. Shuni alohida ta'kidlash joizki, davlat boshqaruvida ayollar vakilligining ortishi qonunchilikda gender omillarining inobatga olinishi, ayollar muammolari va ularning oldini olish, bartaraf etish masalalari keng doiralarda ijobiy hal etilishiga zamin yaratadi.

Jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash haqida gap ketganda, oila – mahalla – jamoatchilik nazorati hamkorligi mexanizmini kuchaytirish, ular o'rtasida maqsadli va manfaatli aloqani ta'minlash muhim hisoblanadi. Bugun ijtimoiy boshqaruv idorasi hisoblangan mahallaning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli tobora ortib borayotganini ham alohida ta'kidlash lozim. Binobarin, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni ko'pchilik yordamida hal etishda yuqoridagi uchlikning o'rni ahamiyatga

ega. Joylarda ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni aniqlash, o'rganish va hal etishda mahalla xotin-qizlari faollari faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytish mumkinki, jamiyatdagi ma'lum o'zgarish inson ongiga ta'sir o'tkazish bilan bog'liq. Bu esa strategik maqsad va vazifalar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, gender madaniyatining kishilik ongiga singdirib borilishida ta'sir mexanizmlarining o'rni alohida hisoblanadi. Sotsializatsiya agenti sifatida ta'lim tizimiga tayanish va bundan maqsadli foydalanish ijobiy natijalarga olib kelishi aniq. Bunda, malakali mutaxassislardan foydalanish, ishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, monitoringi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda gender madaniyatining joriy etilishi hayotning barcha jabhasida erkaklar

va ayollarning teng huquq va imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan 2030-yilgacha gender tengligiga erishish bo'yicha Milliy strategiyani qabul qilinishi bilan bog'liq. Ushbu strategiya rahbarlik lavozimlarida ayollarning vakilligini oshirish, davlat organlarida gender nomutanosibligini bartaraf etish, ayollarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, O'zbekistonda gender madaniyatini joriy etish murakkab, ammo muhim jarayon bo'lib, kompleks yondashuv va barcha manfaatdor tomonlar, jumladan, davlat organlari, ta'lim tizimi, jamoat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarning ishtirokini talab qiladi. Bunda, keng jamoatchilikning ishtiroki va faolligi ijobiy natijalarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. В.В.Созаев Гендерная теория как фактор формирования гендерной компетентности в культурологическом образовании школьников, 2008. – С. 426-430.
2. С.Т.Вихрь. Гендерное воспитание учащихся старшего подросткового и раннего юношеского возраста. Дис. канд. пед. наук. –Ташкент: 2006. – С. 110.
3. А.В.Шведова. Развитие гендерной культуры как культура социального взаимодействия// Инновационные проекты и программы в образовании. 2014. №5. – С. 18 (18-22).
4. И.Андреева. Формирование гендерной культуры в современном обществе: философско-культурологический анализ: дис. ... докт. филос. наук: 09.00.03/И.И.Андреева; Рост. гос. ун-т. –Ростов н/Д, 2005. – С. 285.
5. Н.В.Антонова. Гендерная культура как фактор формирования гендерной политики в России". Социология. Bulletin of the South Ural State University. Ser. Social Sciences and the Humanities, 2019, vol. 19, no. 4. – С. 103 (102-108).
6. Гидденс Э. Трансформация интимности. – Санкт-Петербург: Питер, 2004. – С. 208.